



Received: January 1, 2024
Accepted: March 21, 2024
Available online: March 25, 2024

Munira Sharipova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Munira Sharipova

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: msharipova775@gmail.com
ORCID iD: 0009-0000-4102-5042

XVI ASR ADABIY JARAYONIDA MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING O'RNI

ANNOTATSIIYA

O'zbek davlatchiligi tarixida hukmronlik faoliyatini badiiy ijod, san'at va ilm-fan bilan birga qo'shib olib borgan shaxslarning ko'pligi xalqimizning yuksak tafakkuri-yu ajdodlarimizning serqirra iste'dodidan darak beradi. Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) ham nazmiy iste'dod, harbiy iqtidor va siyosiy tafakkurga ega inson bo'lgan. Tariximiz asl manbalar asosida yozilmagan sho'ro tuzumi davrida Muhammad Shayboniyxon faoliyatidan faqat nuqson qidirilib, xizmatlari e'tirof etilmay, ijodi kamsitilib kelindi va bu shaxs haqida biryozlama taassurot shakllanishiga sabab bo'ldi. Ma'lumotlar bir-biridan unchalik katta farq qilmaydigan tarixiy manbalarga asoslanib dadil aytish mumkinki, Muhammad Shayboniyxon ichki nizo va ijtimoiy tangliklar girdobida qolgan davlatni birlashtirgan yirik hukmdor, yillar mobaynida mag'lubiyat nimaligini bilmagan mohir sarkarda, o'ziga xos ijodiy yo'nalishga ega shoir va olim bo'lgan.

Ko'plab Sharq hukmdorlari kabi Muhammad Shayboniyxon huzurida ham ijodkorlar davrasi va adabiy-ilmiy muhit shakllangan. Kamoliddin Binoyi, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoni, Mulla Shodiy kabi iste'dodli shoir va tarixnavislar ma'lum muddat Muhammad Shayboniyxon homiyligida ijod qilganlar. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (1566) tazkirasida 288 nafar, Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (1604–1605) asarida 320 dan ortiq XVI asrda yashab ijod etgan shoir, adib va olimlar haqida ma'lumotlar,

MUHAMMAD SHAYBANIKHAN AND HIS ROLE IN THE LITERARY PROCESS OF THE 16TH CENTURY

ABSTRACT

In the history of Uzbek statehood, many individuals have shown remarkable artistic, scientific, and leadership skills, reflecting our ancestors' high intellect and talent. Muhammad Shaybanikhan (1451–1510), the founder of the Shaybanids state, was a skilled military and political leader and a talented poet. Unfortunately, during the Soviet regime, our history was misrepresented, and Muhammad Shaybanikhan's contributions were downplayed. However, historical sources unanimously portray him as a great ruler who unified the country during internal conflicts, a successful military leader, and a poet and scientist with a unique creative direction.

Under Muhammad Shaybanikhan, a circle of creative individuals and a literary-scientific environment were established, following the pattern of many Eastern rulers. Talented poets and historians such as Kamoliddin Binai, Muhammad Salih, Fazlullah ibn Rozbehan Isfahani, and Mulla Shadi worked under Muhammad Shaybanikhan's patronage for a certain period. Hasankhoja Nisari's "Muzakkiri Ahbob" (1566) contains information about 288 poets, and Mutribiy Samarkandi's "Tazkirat ush-shuaro" (1604–1605) provides details about more than 320 writers and scientists who lived and worked in the 16th century. Examples from their works confirm that cultural life, literature, and science thrived during the rule of the Shaybanids.

The article examines the creativity and enlightening activities of Muhammad Shaybanikhan, a ruler and poet, in the context of Uzbek literature during the 15th–16th centuries. Muhammad Shaybanikhan's attitude towards

ularning ijod namunalari keltirilganligi shayboniylar hukmronligi davrida madaniy hayot, adabiyot va ilm-fan yuksalganini tasdiqlaydi.

Maqolada Muhammad Shayboniynonning ijodi va ma'rifatparvarlik faoliyati XV–XVI asrlar o'zbek adabiyoti kontekstida tahlil qilindi va davr ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayotida tutgan o'rni, ilm-fan homiysi sifatidagi umumlashma qiyofasi ko'rsatib berildi. Muhammad Shayboniynonning badiiy ijod va ijodkorlarga munosabati, ilm-fanga e'tibori tarixiy-adabiy asarlar, Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" tazkirasi va shoir "Devon"idagi ijod mohiyati, shoirlik mas'uliyati xususidagi fikr-mulohazalari aks etgan she'rlari asosida o'rganildi, adabiy-estetik qarashlari tadqiq etildi. Zamondosh ijodkorlar Kamoliddin Binoyi va Muhammad Solih haqidagi misralar yoki bevosita ularning o'zlariga murojaat tarzida yozilgan she'rlari tahlili asnosida Muhammad Shayboniynonning bu ikki shoir faoliyati va ijodiga ma'lum darajada ta'siri bo'lganligi ochib berildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Shayboniynon, she'riyat, shoirlar, Hasanxoja Nisoriy, Kamoliddin Binoyi, Muhammad Solih, "Shayboniynoma" dostoni, madaniy hayot, adabiy muhit, devon, tazkira, munosabat.

KIRISH

Mumtoz adabiyotimizning katta qismi va go'zal namunalari, ilm-fan va san'atga doir nodir asarlarning ayrimlari hukmdorlarning saroylarida yoki ular bilan bog'liq holda yuzaga kelganligi ilmda o'z tasdig'ini topgan. Uzoqni ko'zlagan, saltanatning mustahkam va qudratli bo'lishi, davlatning har tomonlama rivojlanishi uchun harakat qilgan hukmdorlar hamisha ilm-fan, adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratganlar, bu soha vakillariga homiylik qilganlar. O'zbek davlatini yuz yil idora qilgan shayboniylar sulolasi asoschisi Muhammad Shayboniynon va bu sulola vakillari ham shunday fazilatlariga ega edilar.

Muhammad Shayboniynon olim, shoir va san'atkorlarga homiylik qilish, ularni ilmiy-ijodiy ishga targ'ib-tashviq etish bilan birga, o'zi ham o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan, ilm-fanning bir qancha yo'nalishlarida faoliyat olib borgan. "Devon", diniy-falsafiy ruhdagi "Bahr ul-hudo" nomli qasida, islom huquqshunosligiga oid risola va turkiy til qonun-qoidalariga doir kitob bitgan. Shuningdek, Muhammad Shayboniynon Qur'oni karimni yod olgan qoriy ul-qurro bo'lib, qiroatda juda mahoratli bo'lgan. Uning bu xislatini Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih va boshqa tarixnavislar o'z asarlarida qayd etganlar. Bulardan tashqari, musiqa, xattotlik va musavvirlik san'atlarini ham yaxshi egallagan.

artistic creativity and creative individuals, as well as his focus on science, is analyzed based on historical and literary works, including Hasankhoja Nisari's poems in "Muzakkiri ahhob" and "Divan". Furthermore, the analysis of his verses about creative personalities of that time, such as Kamoliddin Binai and Muhammad Salih, reveals that Muhammad Shaybanikhan had a certain influence on the lives and creativity of these two poets, either through his poems addressed directly to them or through his general impact on their work.

Key words: Muhammad Shaybanikhan, poetry, poets, Hasankhoja Nisari, Kamoliddin Binai, Muhammad Salih, dastan "Shaybaniname", cultural life, literary environment, divan, tazkira, attitude.

Muhammad Shayboniyxonning 4000 misradan ortiq sheʼrni jamlagan “Devon”i Istanbul shahridagi Toʻpqopi saroyi kutubxonasida 2436 inventar raqami bilan usmonli turk sultoni Ahmad III (1673–1736) muhri ostida saqlanadi. Mazkur “Devon” haqida ilk bor professor Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon axborot bergan. Uning 1927-yilda “Yangi Turkiston” jurnalida eʼlon qilingan “Shayboqxonning sheʼrlari” [Togan, 1927] nomli maqolasi shoir “Devon”ini ilm olamiga olib kirgan. Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon turli manbalarga asoslanib toʻplagan Muhammad Shayboniyxon toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni kengaytirib 1947-yilda nashr ettirgan “Bugungi turk eli. Turkiston va yaqin tarixi” [Togan, 1947] nomli kitobida ham keltirgan. Muhammad Shayboniyxon “Devon”i 1998-yilda Anqarada turk olimi Y.Qorasoʻy tomonidan lotin yozuvida toʻlalgicha nashr qilingan [Karasoy, 1998].

Muhammad Shayboniyxonning “Bahr ul-hudo” (“Hidoyat dengizi”) nomli 260 baytdan iborat qasidasi Britaniya muzeyi kutubxonasining Sharq qoʻlyozmalari boʻlimidagi Add. 7914 inventar raqamli majmuaning 1 b. – 22 b. sahifalaridan oʻrin olgan. Qasida yuzasidan yurtimizda va xorijda izlanishlar olib borilgan. Amerikalik turkolog olim A.Bodrogligetti 1982-yilda “Ural-oltoyshunoslik xalqaro jurnali”da “Bahr ul-hudo” qasidasini soʻzboshi, tegishli tavsif va lugʻat bilan chop ettirgan [Bodrogligetti, 1982]. 1991-yilda turk olimi professor K.Eraslan mazkur asar matnini ilmiy toʻplamda nashr qildirgan. Nashr kirish soʻz, usmonli turk tiliga tarjima, izoh va lugʻat bilan taʼminlangan. Shuningdek, uning imlo xususiyatlari ham oʻrganilgan [Eraslan, 1991]. Oʻzbek adabiyotshunosligida ilk bor filologiya fanlari nomzodlari Erkin Ahmadxoʻjayev va Ismoil Bekjon qasida boʻyicha “Hidoyat yoʻli” nomli maqola eʼlon qilganlar [Ahmadxoʻjayev & Bekjon, 1995]. “Bahr ul-hudo” qasidasida Muhammad Shayboniyxonning ijtimoiy-falsafiy va maʼnaviy-axloqiy qarashlari oʻzining badiiy ifodasini topganligi keyingi tadqiqotlarda asoslab berilgan [Sharipova, 2020].

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot adabiyotshunoslik ilmida umumiy tarzda qabul qilingan metodlar – biografik, tarixiy-qiyosiy, tavsiflash va badiiy matn tahlili metodlarini kompleks tarzda qoʻllash asosida olib borildi. Xolislik tamoyili boʻyicha bevosita birlamchi manbalar – tarix, tazkira va majmua maʼlumotlariga tayanilgan holda Muhammad Shayboniyxonning serqirra faoliyati hamda XVI asr adabiy-madaniy muhitidagi uning muhim oʻrni talqin qilindi.

Dunyo adabiyotshunosligida birmuncha keng qoʻllaniladigan biografik metod badiiy asarga ijodkor shaxsi orqali nazariy-amaliy jihatdan yondashuv usullaridan biri boʻlganligi va mazmun-mohiyatida inson shaxsiyati hamda faoliyati asosiy oʻrinda turganligi uchun Muhammad Shayboniyxonning biografiyasiga yanada chuqur kirib borilib, shu orqali uning shaxsi va faoliyatidagi eng muhim qirralar ochib berildi.

Maqolada tarixiy manbalar va tazkiralardagi maʼlumotlar, jumladan, Muhammad Shayboniyxonning “Devon”idagi ayrim sheʼrlar tahlili asnosida shoir shaxsiyati, maʼnaviy-axloqiy qiyofasi, maʼrifatparvarlik faoliyati, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi xizmatlari, shu bilan birga, oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan oʻrnini aniqlashda adabiy hodisalarni tarixiy aspektda qiyoslab oʻrganishga eʼtibor qaratilgan

holda tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanildi. Bu esa XVI asr o'zbek adabiyoti tarixi va taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq o'rganish, Muhammad Shayboniyxonning ijodiy faoliyati va adabiy shaxsiyati borasidagi bahs-munozaralarning bir qadar oydinlashishi hamda davr adabiyoti haqidagi bilim va tasavvurlarni yanada boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Muhammad Shayboniyxon hayoti va faoliyatiga doir tarixiy manbalar u juda murakkab hayot yo'lini bosib o'tgani, serqirra shaxs bo'lganidan dalolat beradi. U temuriylar saltanatidan so'ng o'zbek davlatini yuz yil idora qilgan shayboniylar sulolasiga asos soldi. Muhammad Shayboniyxonning eng katta tarixiy xizmati shundan iborat bo'ldiki, qat'iy ichki va tashqi siyosat yuritib "... butun Turkiston hududlari miqyosida markazlashgan qudratli davlat tuza bildi. Bu davlat bizkim, o'zbeklarning Amir Temur saltanatidan keyingi eng kuchli davlatimiz edi" [Ibrohimov, 1999; 33]. Yurtimizda azaldan amalda bo'lgan hanafiya mazhabini safaviylar tajovuzidan xalos etdi, mamlakatni iqtisodiy jihatdan mustahkamladi, obodonchilik sohasida talay ishlar qildi. Davlat boshlig'i sifatida, o'z navbatida, madaniy hayotga, ilm-fan ravnaqiga katta e'tibor qaratdi. Akademik A.Qayumov ta'kidlaganidek, "markazlashgan davlat hamma vaqt ma'lum iqtisodiy va madaniy yuksalishni vujudga keltirajagi aniq" [Qayumov, 1972; 3].

Shu jihatdan Muhammad Shayboniyxon barpo etgan yirik davlat ham uzoq asrlik o'zbek davlatchiligi tarixida o'zidan boy ilmiy, adabiy va madaniy meros qoldirdi. Muhammad Solih va Kamoliddin Binoyining "Shayboniynoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Mutribiy Samarqandiyning dunyo xaritasi ilova qilingan "Tazkirat ush-shuaro", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Amin Ahmad Roziyning "Haft iqlim" kabi ilm-fan uchun muhim ma'lumotlar keltirilgan qimmatli asarlari, yurtimizning turli joylarida bugungacha saqlanib qolgan yuksak did bilan bunyod etilgan ko'plab me'moriy yodgorliklar shayboniylar davrining mahsulidir. Fazlulloh Ro'zbehon, Xondamir va Muhammadyor ibn Arab Muhammad Qatag'anning asarlarida yozilishicha, Muhammad Shayboniyxonga "Imom uz-zamon, xalifat ur-rahmon" unvoni berilgan. Bunday yuksak sharaftga u islomga bo'lgan tengsiz muhabbati, e'tiqodi, yot diniy oqimlarga qarshi kurashdagi g'alabasi va qudratli davlat barpo etgani sababli sazovor bo'lgan, bunga, albatta, yoshlikdagi o'qish, izlanish ham zamin hozirlagan. Umrining ko'p qismi ot ustida, quvg'inda, jang-u jadallarda o'tganiga qaramay, turli ilm va san'atlarni puxta egallagani e'tiborli. Bu haqda sharqshunos A.A. Semenov shunday deydi: "...olimlar Shayboniyxon faqat darbadarlikda kechgan hayotida qanday qilib bunday kamolotga erishdi ekan, deya hayratlanadilar" [Semenov, 1954; 70].

Muhammad Shayboniyxon uchun bobosi Abulxayrxon vafotidan keyingi xavf-xatarli hayotning, darbadarlik yillarning samarali, foydali tomonlari ham bo'lgan. She'riyatga, ilmga chanqoq shahzoda Yassi, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida sarson-u sargardonlikda yurgan kezlarida bu yerlardagi olim-u fozillar, shoir-u san'atkorlar bilan tanishishga, ilm olishga, "adabiy tarbiya ko'rishga"

[Fitrat, 2000; 56] ulguradi. Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning nufuzli amirlaridan bo'lgan Buxoro hokimi Abdulali Tarxon muhammad Shayboniyxonni "buyuk xon"ning nabirasi sifatida yaxshi kutib oladi. Buxoroga birinchi marta borganida ikki yil davomida madrasada tahsil ko'radi. Bolalikdan ilm-fanga zo'r havas qo'ygan Muhammad Shayboniyxon madrasada fanning turli sohalaridagi bilimlarini takomillashtiradi, xattotlik san'ati borasidagi mahoratini oshiradi. Kamoliddin Binoyining "Shayboniynoma" va Muhammadyor ibn Arab Muhammad Qatag'anning "Musaxxir al-bilod" asarlarida qayd etilishicha, Muhammad Shayboniyxon Buxoroning islomiy o'chog'ida, dastlab, o'sha davrning mashhur ilohiyot va insho olimi mavlono Muhammad Xitoyi huzurida tahsil olib, Qur'oni karim qiroati ilmini egallashga qattiq bel bog'laydi. Yirik mutasavvif unda islomiy ilmlarga chuqur mehr uyg'otadi. U ustozidan Qur'on, hadis va fiqh ilmlarini tirishqoqlik va ixlos-e'tiqod bilan o'rganadi. Buxoro madrasalarida olingan tahsil ijodkor fitrati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik Muhammad Shayboniyxonning ijodida Alloh, inson va tabiat, ularning munosabatlari, axloq-odob masalalari yetakchi mavzu bo'lgani shu tahsilning samarasidir. So'ngra hofizlar peshvosi Jaloliddin Mahmud yordami bilan qiroat qoidalarining nozik tomonlaridan ham to'la xabar topib, Qur'on ilmida yanada mukammallik darajasiga yetadi. Shu yillar mobaynida Buxoroning ko'plab olimlari, hofizi Qur'onlari bilan suhbat va darslar olib borib, zohiriy hamda ma'naviy ilmlarda kamol kasb etadi [Qatag'an, 2009; 35]. Muhammad Shayboniyxon Buxoroda mashhur shayx va olim Muhammad ibn Muhammad Hofiz Buxoriy – Xoja Muhammad Porso (1345–1419)ning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busiriy, uning xalfasi Xoja Mahmud va Hofiz Hamid bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Akademik B.Ahmedov ular, hatto, muntazam ravishda bir-birlari bilan bordi-keldi qilishgani, bir gal Hofiz Husayn Busiriy Muhammad Shayboniyxonning huzurida bo'lsa, keyingi safar bo'lg'usi hukmdor uning huzuriga tashrif buyurgani, umuman, har ikkalalarining majlisi ulamo va shuaroning ishtirokisiz o'tmagani haqida yozadi [Ahmedov, 1994; 248]. Muhammad Solih "Shayboniynoma" dostonida Shayboniyning bu xislatini quyidagi misralarda ifodalagan:

Avliyo suhbatig'a yetkandur,

Atqiy o'xidmatig'a yetkandur [Solih, 1961; 28].

– Muhammad Shayboniyxon Buxoroda tahsil olib yurganida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sini qayta-qayta o'qigan, "Temur tuzuklari"ni to'liq yodlagan. U o'z she'rlarida Buxorodagi hayotini, ustozlarini ko'p eslaydi, mavlono Muhammad Xitoyini o'z piri, murabbiysi sifatida e'tirof etadi, uning vafoti ta'rixini ham bitadi. Abdulali Tarxon bilan yaqin munosabatda bo'lish, temuriylar bilan uchrashish, olim va adiblar bilan muloqot qilish Muhammad Shayboniyxonning navbatdagi ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham Zahiriddin Muhammad Bobur uning bu darajada taraqqiy topishiga va temuriylarning qadimgi hokimiyatiga zarar yetishiga Abdulali Tarxon sababchi bo'lgan, deb hisoblaydi [Bobur, 2002; 45-46]. Biroq Hasanxoja Nisoriyning ma'lumotiga qaraganda, ayrim munofiq kimsalarning tuhmati tufayli Abdulali Tarxon bilan Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi munosabatlar barham

topgan va u Buxoroni tezlikda tark etishga majbur bo'lgan. Shu kezlarda Muhammad Shayboniyxon Bahouddin Naqshband mozoriga borib biroz muddat shu yerning shayxi Nizomiddinxoja Mir Muhammad Naqshband xizmatida bo'lgan. Shayx unga kurashni Turkiston taraflardan boshlashni tavsiya etgan ekan [Nisoriy, 1993; 19].

Muhammad Shayboniyxonning hatto harbiy yurishlarida ham atrofida bir necha ulamo va shoirlar bo'lgan, barcha urush safarlarida o'zi bilan ko'chma kutubxonasini olib yurgan, olim va san'atkorlar bilan ijodiy muloqotda bo'lishga, ular bilan maslahatlashib ish yuritishga odatlangan, tez-tez davra suhbatlari, qabul marosimlari uyushtirgan. Asli eronlik bo'lib, shialar ta'qibi tufayli o'z yurtidan chiqib ketishga majbur bo'lgan Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoniy (1457–1521) Muhammad Shayboniyxonning himoyasi ostida umr kechirgan va nosir, nozim, muarrix va mudarris sifatida faoliyat yuritgan. Uning qalamiga mansub “Mehmonnomayi Buxoro” asarining dastlabki nomi “Safarnomayi Buxoro” bo'lib, muallifning aytishicha, Muhammad Shayboniyxon uni “Mehmonnomayi Buxoro” deb o'zgartirgan. Asarga mos va xos sarlavha tanlab berganligi hukmdor ijodkorning serhafsala va sinchkovligini namoyon qiladi. “Mehmonnomayi Buxoro”da harbiy yurishlar tasviri bilan birga, Muhammad Shayboniyxonning diniy-huquqiy va adabiy kengashlardagi ishtiroki, diniy masalalar bo'yicha bahs-munozaralar haqida ham so'z boradi. Asar Muhammad Shayboniyxon she'rlaridan namunalar berilgan manba sifatida ham ahamiyatlidir [Isfaxani, 1976].

Muallifi aniqlanmagan o'zbek tilidagi “Tavorixi guzida – Nusratnoma” (1502–1504) nomli nasriy asarning yozilishida Muhammad Shayboniyxon bevosita ishtirok etganligi ilmiy isbotlangan [Tavarix-i guzida – Nusrat-name, 1967; Mukminova, 1954; 1966]. Asarning so'nggi qismida Abulxayrxon tarixi, Muhammad Shayboniyxon va uning ukasi Mahmud Sulton bilan bog'liq voqealar bayoni berilgan bo'lib, ularda voqealarning oyi, haftasi va hatto soati ham aniq ko'rsatilgan. Sharqshunos I.N. Berezin bu asarni asli va ruscha tarjimasida “Sheybaniada” nomi bilan 1849-yilda Qozonda nashr ettirgan [Berezina, 1849]. Asar Muhammad Shayboniyxonning she'rlari mavjud manba sifatida ham muhimdir. Undan shoirning “yana” va “ichinda” radifli ikki turkiy g'azali o'rin olgan. Aytish mumkinki, “Tavorixi guzida – Nusratnoma” va Kamoliddin Binoyining “Shayboniynoma” asari hammualliflik va hamkorlik mahsulidir. Bu ma'lumotlar Muhammad Shayboniyxonning faqat nazmda emas, nasrda ham ijod qilganligidan darak beradi.

Hasanxoja Nisoriy Muhammad Shayboniyxon va uning ilm-fan hamda ilm ahliga munosabati to'g'risida shunday yozgan: “Sohibqiron xon ilm-u fazilatlaridan xabardor, aniqrog'i, ularni to'la egallagan kishi edi. She'riyat sohasi va shoirlarga e'tiqod-e'tibori katta bo'lgan. Mudom olim-u fozillarni o'ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she'rlari bor” [Nisoriy, 1993; 20].

Muhammad Shayboniyxon hukmronlik faoliyati davomida davlat arboblari va ruhoniylar ishtirokida mamlakat hayotiga oid turli masalalar yuzasidan kengashlar o'tkazib turgan. “Mehmonnomayi Buxoro” asarida aytilishicha, Muhammad Shayboniyxon Samarqandga kelganida, bu yerdagi barcha madrasalarni borib ko'radi, olimlar sharafiga qabul tashkil etadi, mudarris va talabalarga maosh tayin qiladi. Yana shu asarda faqatgina 1509-yilda Buxoroda Xoja Bahouddin Naqshband, Turkistonda

Xoja Ahmad Yassaviy, Mashhadda Imom Rizo, Xurosonda Imom G‘azzoliy qabrlarini ziyorat qilib qaytganligi hikoya qilinadi. Bu holat Muhammad Shayboniyxonning din arboblari hurmat va e‘tiqodi nihoyatda baland bo‘lganini ko‘rsatadi. U Samarqand va Buxoro shaharlarining Amir Temur va Ulug‘bek zamonlaridagi shukuhini qayta tiklashga harakat qildi. Poytaxt Samarqandni ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirish uchun bu yerga boshqa shaharlardan olim va san‘atkorlarni, hunarmand va ustalarni chorlaydi, ularga munosib vazifalar topshiradi. Bu davrda Muhammad Shayboniyxonning topshirig‘iga ko‘ra ko‘plab tarixiy va badiiy asarlar yaratildi. Xonning sa’y-harakati tufayli mintaqada turkiy tilning davlat va adabiyot tili sifatidagi nufuzi va ta’siri oshdi. Uning buyrug‘i bilan fors va mo‘g‘ul tilidagi asarlar ona tilimizga tarjima qilindi.

Muhammad Shayboniyxonning ma’rifatparvarligi xususida so‘z borganda uning faoliyatini yaxshi o‘rgangan olim H. Vamberining ushbu fikrlari esga tushadi: “...bu urush odami maorif va madaniyat haqida o‘z davrining ruhidan to‘la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo‘lgan. Chunki uning she’rlari, dushmanlari fikrining teskarisi o‘laroq, buyuk bir iqtidor va go‘zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy, ham forsiy, ham arabiy tillardan asosli suratda voqif ekanini ko‘rsatmoqda... U maorif jihatidan oldingi Temur shahzodalarining aksaridan past emas edi” [Vamberi, 1990; 91-92].

Muhammad Shayboniyxon davlatning obodonchilik ishlariga ham jiddiy e’tibor qaratdi. Dehqonchilikni rivojlantirish uchun ko‘plab sun’iy sug‘orish inshootlari qurirdi. Sirdaryo suvini ishga solish bilan atrof yerlarni ekinzorlarga aylantirilishiga hissa qo‘shdi. 1502-yilda Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayriladigan yerida qurdirgan suvayirgich va to‘g‘on bu yerlardagi suv bilan bog‘liq muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Muhammad Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo‘lida qator islohotlar o‘tkazdi. Dastavval, davlat boshqaruvida suyurg‘ol tizimini joriy etdi, ya’ni zabt etilgan hududlarni idora qilishni toj-u taxt oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari uchun sulola a’zolari, harbiy boshliqlar va yirik davlat arboblari topshirdi.

“Vaqfnomayi Hazrati Shayboniyxon” asarida qayd qilinishicha, Muhammad Shayboniyxon 1507-1508-yillarda mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish va pul-savdo munosabatlarini barqarorlashtirish maqsadida pul islohotini amalga oshirgan. Bunga ko‘ra, hamma katta shaharlarda ko‘p miqdorda bir xil vazndagi (5,2 gramm) kumush tangalar va mis chaqalar zarb qilinib, muomalaga kiritilgan. Ularning sofligi va vaznining to‘g‘riligi ustidan qattiq nazorat o‘rnatilgan. Soliq tizimi va jarima, vaqf ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Bular davlatning moliyaviy ahvoli yaxshilanishiga va boshqa tarmoqlarning izga tushib ketishiga yordam bergan. Mamlakat iqtisodiy hayotida dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo asosiy o‘rinni egallagan.

Muhammad Shayboniyxonning yana bir islohoti ta’lim sohasida olib borilgan. Islohotga ko‘ra, mamlakatda ko‘p bosqichli o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bolalarga olti yoshdan ta’lim beriladigan bo‘ldi. Maktabda ikki yillik majburiy ta’lim, madrasada har bir bosqichi sakkiz yildan iborat bo‘lgan uch bosqichli ta’lim joriy etildi. Bu uzoq

muddatlik tahsil jarayonida tolibi ilmlar zamonaning Mavlono Xojagiy, Mavlono Turkistoni, Fazlulloh Isfahoni, Mustafo Rumi, Sulton Ali Ubahiy, Qavomiddin Balxiy kabi peshqadam mudarrislari qo'lida diniy va dunyoviy fanlardan saboq olardilar [Sharipova, 2004; 36]. Muhammad Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan ushbu tadbir sal keyinroq o'z samarasini berdi. XVI asr o'rtalariga kelib Movarounnahrda tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix va adabiyot ilmida nom qoldirgan, mazkur fanlarning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan olimlar yetishib chiqdi. Ular kashf qilgan ixtirolar, yozgan asarlar o'sha davr ijtimoiy-madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Bu asarlarning ba'zilar ko'p jihatlari bilan bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Muhammad Shayboniyxon hokimiyat tepasiga kelgach, yirik davlatning yirik me'moriy obidalarini, imorat-u inshootlari bo'lishi kerakligini nazarda tutib, keng ko'lamda qurilish ishlarini boshlab yuborgan edi. Uning buyrug'i bilan Samarqandda bunyod etila boshlangan madrasa 1515-1516-yillarda nihoyasiga yetkaziladi. Zayniddin Vosifiy Muhammad Shayboniyxon madrasasini shunday ta'riflaydi: "Shahid xon, zamon imomi Muhammad Shayboniyxonning Samarqand Chorsuqi boshlanishida qurilgan madrasasining ham oliy darajali ayvoni balandligi uning baland himmati monand, jannatga o'xshash sahnining kengligi uning dili va qo'li yanglig' keng va arjumand edi" [Vosifiy, 1979; 18]. Asarda bu madrasaga to'rtta mudarris tayinlanganligi, ulardan biri Ulug'bek madrasasining birinchi mudarrisi Mavlono Muhammad Xavofiy avlodidan, maoniy va bayon ilmlarining bilimdoni Mavlono Xojagiy bo'lgani zikr etiladi. Abu Tohirxoja (XIX asr) "Samariya" asarida Muhammad Shayboniyxon madrasasi Amir Ma'sum farmoyishi bilan tuzatilib, vaqflari belgilanganligi va unda darslar davom etayotganligini yozadi [Samarqandiy, 1991; 26].

Muhammad Shayboniyxon Xoja Ahmad Yassaviyning qabrini ziyorat qilish maqsadida Turkistonga kelganda uning maqbarasini ta'mirlatadi, Yassi shahrida sulton-ul orifin nomiga jome' masjidini qurilishiga buyruq beradi. Undan oldinroq Balx shahri qal'asining devorlarini ta'mirlatadi. Shuningdek, temuriylardan qolgan go'zal binolarni saqlash va ularni tuzatishga ham harakat qiladi. 1508-yilda Ismoil Safaviy bilan tinch munosabatda bo'lgan chog'larida unga maktub yozib, imorat va koshin ustalarini yuborishni so'ragan. Bulardan tashqari, Muhammad Shayboniyxon elchilik, tashqi savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarga odamlarini jo'natgan, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlagan. Muhammad Shayboniyxon hayoti va faoliyati davomida bir davlat rahnamosi va bir ijodkor shaxs amalga oshirishi mumkin bo'lgan vazifalarning barchasini bajarib ketgan va bejiz shunday yozmagan:

*Shayboniy, yurti haqqida base emgak ko'rub tun-kun,
Bu emgakdin, musulmonlar, tushar bir-bir bu dandonim**

*Muhammad Shayboniyxon qo'lyozma "Devon"i fotonusxasi, 110-b.; "Devon"dan olingan misollarda raqam "Devon" varag'ini, harf esa uning betini bildiradi.

Shayboniylar sulolasining keyingi vakillari ham uning ma'rifatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini, islohotchilik siyosatini davom ettirganlar. Muhammad Shayboniyxondan so'ng hukmronlik qilgan Ko'chukchixon ibn Abulxayrxon

davrida Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome’ ut-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan, kutubxonalar ko‘paygan va kengaygan, masjid, madrasa, xonaqohlar ta’mirlangan. Ko‘chkunchixon Agraga, Bobur huzuriga, elchilar yuborgan. Ular Bobur tomonidan qimmatbaho tuhfaralar bilan kutib olingan.

Shayboniylar sulolasidan, ayniqsa, Ubaydullaxon va Abdullaxon II ning o‘zbek davlatchiligi tarixida, fan va madaniyat ravnaqida xizmatlari katta. Shuningdek, boshqa shayboniyyodalar ham yoshlikdan she’riyatga, turli hunar va san’at turlariga havas qo‘ygan edilar [Ziyo, 2001; 251-252]. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida 17 nafar nazmiy iqtidorga ega shayboniy sulton va xonlarning nomlarini tilga olgan. Bulardan Abdulazizxon (Aziziy), Rustam sulton (Rustiy), Abdol sulton (Xush), Avaz G‘ozi sulton, Bahodir sulton, Muzaffar sulton, Do‘stum sulton, Fo‘lod sulton, Abdulmo‘minxonlar nafaqat shoir, shu bilan birga, musavvir va husnixat sohibi ham bo‘lganlar. Abdulatifxon tarix va nujum ilmi bilan shug‘ullangan, Abdullaxon I musiqashunos, sozanda va xattot bo‘lgan. Muhammad Shayboniynon, Abdulazizxon va Abdullaxon II larning boy kutubxonalari, u yerda xizmat qiluvchi kotib va musavvirlari bo‘lib, kitobat ishlari va miniatyura san’ati rivoj topdi. Shu tariqa XIV asrda shakllangan tasviriy san’at maktabining yo‘nalishlaridan biri Buxoro miniatyura maktabi gullab-yashnadi. Mavloni Mahmud Muzahhib, Abdulloh Xurosoniy, Sulton Mirak Buxoriy, Said Ibrohim, Mirali Hiraviy-Fathobodiy, Mir Savodiy, Arab Muhammad al-Buxoriy kabi mashhur rassom va xushnavis kotiblar shu davrda ijod qildilar. XVII asrda yashagan turkiyalik sayyoh va olim Avliyo Chalabiyning ta’kidlashicha, Sulton Boyazid II davrida (1481–1512) rassomlik san’atini Turkiyaga dastlab keltirgan kishi buxorolik o‘zbek san’atkori Bobo naqqosh bo‘lgan. XIV–XVII asrlarda amalda bo‘lgan Buxoro miniatyura maktabi aynan shayboniylar hukmdorligi yillarida sermahsul bo‘lganligi o‘zbek va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan tan olingan.

Boburning Kobuldan Muhammad Shayboniynonning nabirasi Fo‘lod Sultonga “Devon”ini yuborganligi (1519), Xojaning “Miftoh ul-adl” kitobi (1509) Temur Sulton uchun ta’lif qilinganligi, Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi (1566) Abdullaxonga bag‘ishlanganligi ijodkorlarning shayboniylarga nisbatan hurmat va ixlosini ko‘rsatishi bilan birgalikda, ayni paytda shayboniy hukmdorlarning adabiyot va san’atga bo‘lgan rag‘batidan dalolat beradi.

E’tirof etish joizki, sulolaning deyarli barcha vakillari zamonasining yuksak ma’lumotli kishilari bo‘lganlar, hokimiyat tepasida turganlari ilm-u fazl va san’at egalariga rahnamolik qilganlar, me’morchilik va obodonchilik ishlariga alohida e’tibor qaratganlar. Shayboniylar davrida ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga molik me’moriy yodgorliklar bino qilinganki, ularning ayrimlari tabiiy ofatlar, jang-u jadallardan omon qolib, hozirgacha yurtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Shu bilan birga, bu obidalar insonlarni ma’naviy jihatdan birlashtirib, ezgulikka da’vat etib kelmoqda.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Amir Temurni nazarda tutib shunday mulohaza bildirgan edi: “Inson bir paytning o‘zida ham bunyodkor, ham

yovuz bo‘lishi mumkin emas. Ne-ne madrasa-yu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olim-u fuzalolarning boshini silagan, Qur’oni karimni yod bilgan inson yovuz bo‘lmaydi” [Karimov, 1998; 15-16]. Bizningcha, ayni paytda bu fikr Muhammad Shayboniyxon va shayboniylarga ham tatbiqan aytilganga o‘xshaydi.

Muhammad Shayboniyxon hukmdor va ijodkor sifatida zamondosh shoirlar faoliyatini va adabiy jarayonni muntazam kuzatib borgan. Alisher Navoiy “Majolis-un-nafois” tazkirasida “Bag‘oyat qobiliyati bor” deb ta’riflagan mashhur fors shoiri Kamoliddin Binoyi (1453–1512) ijodi xususida shunday fikr bildirgan:

*Hariflar, zariflar gulistonida
Ne bulbul bo‘luptur Binoyi g‘ulom.
Ani maqtasam ayb qilmang meni
Kim, ul she‘r-u inshodadur xushkalom* (102 a).

Misralar mazmunidan Muhammad Shayboniyxon Binoyi ijodiga yuqori baho bergani anglashiladi. Umuman, uning ijodida Kamoliddin Binoyi haqidagi misralar yoki bevosita uning o‘ziga murojaat tarzida yozilgan she‘rlar talaygina. “Devon”da Binoyi nomi g‘azal, ruboiy, tuyuq, muammo kabi turli janrdagi asarlarda yigirma marotaba tilga olingan. Muhammad Shayboniyxon hech kim haqida bu qadar ko‘p yozmagan. Ularda shoir “asl-u nasabda pok”, “ilm ichinda kon”, “she‘r va inshoda cholok”, “el orasinda bebok”, “so‘zda asru duldul” deb ta’riflanadi. Ma’lumki, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida Binoyining musiqa bilan shug‘ullanib, sohaga doir risola bitganligini qayd etgan [Navoiy, 1997; 69]. Muhammad Shayboniyxon Binoyi faoliyatining bu qirrasini she‘riy misralarda tilga oladi:

*Ko‘runguz Binoyi ishingki, naydur, musiqudur,
Tuzalik ayolg‘u o‘zbak deyolim bo‘lum bo‘lolo.*

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida aniq dalillarga asoslangan va xolis baho bergan Binoyi haqidagi barcha ma’lumotlarni Muhammad Shayboniyxon she‘riy yo‘l bilan takrorlagan. Ikkala ijodkorning Binoyi haqidagi ta’rif-u e’tiroflari juda uyg‘un:

*Ellik yoshda Binoyi fozil bo‘ldi,
To‘lun oydek el aro mashhur bo‘ldi.
Bir necha musofir bo‘lubon bizga kelib,
Shah nomini ko‘tarib o‘zi bo‘ldi* (189-b.).

Manbalarda Binoyining hayoti silliq kechmaganligi, ziddiyatli vaziyatlarni boshdan o‘tkazganligi, bir joyda muqim yashamasdan ko‘p yurtlarda sarson bo‘lganligi qayd qilingan. “Ba ismi shudani” sarlavhali yuqoridagi muammo janriga oid she‘rdan Muhammad Shayboniyxon 1507-yilda Hirotni olgandan so‘ng Binoyining musofirchiliklari barham topganligi, saroy shoiri va tarixchisi sifatida hurmat-e’tibor qozonganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Kamoliddin Binoyining tarixiy mavzudagi “Shayboniynoma” (1505–1507) asarining kattagina qismi Muhammad Shayboniyxon tomonidan yozilgan. Buni Binoyining asardagi bir necha o‘rinlarda “Ushbu satrlar Hazrati xalifat ur-rahmon

qalamiga mansub” degan ta’kidi tasdiqlaydi. “Shayboniynoma”da Abulxayrxon, Shoh Budog’ Sulton tarixi va Muhammad Shayboniynonning yoshlik chog’laridan boshlab Xurosonni zabt etishiga qadar bo’lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar tarixiy izchillikda nasriy yo’l bilan qisqa, lekin aniq bayon qilingan. She’riy parchalar ham keltirilgan [Ibragimov, 1969]. Kamoliddin Binoyi Muhammad Shayboniynonning saroyida xizmat qilar ekan, xonning harbiy yurishlarida tarixchi sifatida ishtirok etgan. Xususan, uning quyidagi olti misrali tuyug’i Binoyiga bog’liq bir vaziyat munosabati bilan yaratilgan:

*Ey Binoyi, bu kitobing bo’ldi kech,
Bir seningtek qayda bo’lg’ay qo’li kech.
Bizga Urganch yurishida yaramay,
Sen farog’atda bo’lubsan, quli kech.
Ketdi o’sh moling qaroqchi qo’lida,
Ne turursen, endi anda ko’lli kech (185-b.-186 a).*

Ma’lumki, Muhammad Shayboniynon saroydagi ijodkorlar, jumladan, Kamoliddin Binoyiga o’zining faoliyati, yurishlari haqida asarlar bitishni buyurgan. Tuyuqning mazmunidan anglashiladiki, Binoyining “Shayboniynoma” asari aytilgan muhlatda yozib tugatilmagan, ya’ni kech, vaqtidan o’tganda bitgan. Ikkinchi misrada xon shoirdan noroziligini uni “qo’li kech”, ya’ni ishni orqaga suradigan, paysalga soladigan odam deb atash orqali bildirmoqda. Keyingi misradan Binoyi o’z tinchini, rohat-farog’atini ko’zlab Muhammad Shayboniynonning Urganch yurishida (1504-1505) ishtirok etmaganligi ma’lum bo’lmoqda. Shuning uchun ham to’rtinchi misrada “kech” so’zini bunday insonning bahridan o’tish kerak ma’nosida qo’llagan. So’nggi ikki misrada qaroqchi molingni olib ketdi, endi uni qaytarish uchun sen ham ortidan ko’lni kechib o’tgin, demoqda. Shuningdek, “ko’lli kech” jumlasini “kulli kech”, ya’ni barchasidan kech ma’nosida ham anglash mumkin. Demak, tuyuqda “kech” so’zi – kech, vaqt o’tganda; orqaga tortmoq, paysalga solmoq; bahridan o’tmoq, voz kechmoq; o’tmoq, yurmoq ma’nolarida ishlatilgan. Mazkur tuyuq tarixiy asosga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Bir g’azali maqta’sida so’z o’yini qilib Binoyi va Navoiy nomlarini birga keltiradi:

*Bu Shabonig’a Binoyi der navoye qilsangiz,
Chun Navoiyg’a murassa’ so’zlari oson erur (59 a b).*

Mazkur misralar mazmuniga ko’ra aytish mumkinki, Muhammad Shayboniynon va Binoyi ijodiy ishlar borasida tez-tez muloqot qilganlar, bir-birlarini she’r yozishga da’vat etganlar. Muhammad Shayboniynon o’z adabiy imkoniyati darajasini va Alisher Navoiy ijodiga yuksak bahosini baytning ikkinchi misrasidagi iyyom san’ati vositasida ifodalagan, ya’ni “Navoiy” so’zi orqali ikki ma’noni nazarda tutgan: 1. Muhammad Shayboniynonning qimmatbaho, ziynatli so’zlari navo, ohang, kuyga oson tushadi. 2. Navoiy uchun bu qimmatbaho tosh kabi ziynatlangan so’zlar osondir.

Shu bilan birga, Binoyining fe’l-sajiyasidagi ba’zi nomaqbul tomonlar ham Muhammad Shayboniynon e’tiboridan chetda qolmaydi. Shoirning o’ziga xos tabiati haqida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiy, Mirzo

Muhammad Haydar va boshqa ijodkorlar yozib qoldirganlar. Binoyi shaxsiyatidagi injiqlik, beqarorlik, takabburlik kabi nuqsonlar Muhammad Shayboniyxonning unga boʻlgan munosabatiga ham taʼsir qilgan. Bir sheʼrida Binoyiga “Feʼling erur tez-u achchigʻing yomon” deb dashnom beradi. Bularga qaramay, Kamoliddin Binoyi isteʼdodli shoir, tarixnavis olim, musiqashunos va tarjimon sifatida tarixda qolgan. Yana bu ikki insonning hayoti ham jang maydonida yakun topgan. Shayboniyxon Eron shohi Ismoil Safaviy bilan jangda 1510-yil halok boʻlgan boʻlsa, Kamoliddin Binoyi oradan ikki yil oʻtib safaviylar tomonidan uyushtirilgan ommaviy qirgʻin paytida Qarshi shahrida oʻldirilgan.

Muhammad Shayboniyxon oʻz sheʼrlarida yana bir isteʼdodli zullisonayn shoir Muhammad Solih (1455–1535) nomini ham hurmat bilan tilga oladi. Bu nom “Devon”da olti oʻrinda keltirilgan. Temuriylardan koʻp ozor koʻrgan Muhammad Solih 1499-yilda Muhammad Shayboniyxon xizmatiga keladi. Uning saroyida shoir va saroy tarixchisi sifatida faoliyat olib boradi, safdosh boʻlib harbiy yurishlarida qatnashadi. Muhammad Shayboniyxon unga “Amir ul-umaro” va “Malik ush-shuaro” rasmiy unvonlarini beradi. Muhammad Solihning ayrim vaqtlarda muhim davlat vazifalarini bajarganligi, Buxoro, Chorjoʻy va Niso viloyatlarini boshqarganligi haqida maʼlumotlar bor.

Abdurahmon Jomiy kabi ulugʻ zotning tarbiyasini olgan, Alisher Navoiydek buyuk shoirning nazariga tushgan shunday insonning hokimiyat ishlarida ham, badiiy ijodda ham oʻziga hamkor va hamrohligidan, albatta, Muhammad Shayboniyxon faxrlangan boʻlsa kerak. “Devon”dagi bir toʻrtligida amir Muhammad Solihning xushxabar keltirganligidan xursandligini quyidagacha ifodalaydi:

*Solih, bu bormogʻingdin koʻnglum sevunib bordi,
Ul soʻzni eshitkali koʻz taqi yorib bordi.
Shu kun tutub ul soʻzni yaxshi mahal erdikim,
Qochti yogʻilar, bizdin gʻam taqi dorib bordi (186 a).*

Muhammad Shayboniyxon yana bir shoh shoir Husayniy (Husayn Boyqaro)ni ham eslagan bir gʻazalida Muhammad Solihdan minnatdorligini yozadi va uni oʻziga yaqin olib “Xorazmim manum” deb ataydi:

*Ul Husayniy tili birla ayturam bir necha soʻz,
Bu Shaboniygʻa madadchi boʻldi Xorazmim manum (101 a).*

*“Devon”da “Ba ismi Solih” deb shoir ismiga muammo ham bitadi

Alisher Navoiy “Tabʼida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati koʻpdur” [Navoiy, 1997; 138] deb baho bergan, ismi jismiga mos, pok va muloyim tabiatli bu insonni Muhammad Shayboniyxon oʻziga yaqin olgan, unvon-u martabalar bilan siylagan. Bu yaqinlik mumtoz adabiyotimiz xazinasini “Shayboniynoma”dek muhtasham bir doston bilan boyitgan. “Shayboniynoma” dostoni (1506) Muhammad Shayboniyxonga bagʻishlangan maxsus asardir [Solih, 1961]. Muallif 1499–1506-yillar oraligʻida yuz bergan, oʻz koʻzi bilan koʻrgan va oʻzi ham ishtirok etgan voqea-hodisalarni asar asosiga olgan. Mazkur badiiy solnomada Muhammad Shayboniyxon faoliyatining barcha qirralari batafsil bayon qilingan. Muhammad Solih ham, oʻz

navbatida, Muhammad Shayboniyxonning shoirligi masalasiga to'xtalib, she'rni, she'riyatni yaxshi tushunishi, badiiy ijod bilan shug'ullanishi, nazm va nasrda ijod qilishi, turkiy va forsiy she'rlari ko'pligi, muammo janridagi asarlari mashhurligi haqida yozgan hamda uning qalamiga mansub uch g'azalni to'liq holda, bir g'azalning faqat matla'sini o'z dostonida keltirgan.

Muhammad Haydar Mirzoning (1499–1551) “Tarixi Rashidiy” asarida xabar berilishicha, Muhammad Shayboniyxon Xurosonni egallaganda Mir Mo'g'ul degan xiyla tanilgan shoir turkiy she'r bitibdi:

*Olma olamniki, olamda base g'amlar bor;
Ol ko'ngul mamlakatin, ko'rki, ne olamlar bor.*

Ushbu she'rni Shohibekxonga o'qib berganida, u she'rni juda maqtabdi va: “Firdavsiy Sulton Mahmud G'oziy G'aznaviyga oltmish ming baytdan iborat “Shohnoma”ni aytgan. Sulton Mahmud buning uchun o'ttiz ming dinor bergan. Sen bir bayt aytding, men senga oltmish ming shohruxiy beraman”, – debdi [Mirzo, 2010; 120].

Bu hikoyadan, avvalo, Muhammad Shayboniyxon o'z huzuriga shoirlarni tez-tez chorlab turgani ma'lum bo'ladi. So'ngra uning o'tkir estetik zavqi, she'rni nozik tushungani, ayniqsa turkiy tilda bitilgan asarni qadrlagani va bu tilda ijod qilgan shoirga podshohlarga xos tantilik bilan shohona mablag' ajratgani hamda bu ishni Sharq she'riyat dunyosida mashhur voqeaga havas qilib taqlidan amalga oshirgani ma'lum bo'lmoqda.

Hasanxoja Nisoriy Mavlono Qabuliy Buxoriy xushshubat va maqbul kishi bo'lganligi uchun Muhammad Shayboniyxon uning suhbatini xush ko'rganligi, mashhur fozillardan Mavlono Sulton Ali Ubahiy xon Qur'oni karimning bir oyatini jaliy qalamida chiroyli ko'chirganligini ta'rif qilib fors tilida olti misrali qit'a bitganligi haqida yozgan [Nisoriy, 1993; 82, 161].

Muhammad Shayboniyxon faqat o'z atrofidagi ijodkorlarga e'tibor qaratish bilan kifoyalanib qolmagan. Hukmdorning boshqa hududlarda istiqomat qiladigan shoirlar haqida ham xabardorligi, ularning ijodini kuzatib borganligi va ular bilan ham aloqada bo'lganligini “Devon”ining 166 b-betidagi qisqacha nasriy izoh va undan so'ng berilgan besh baytli g'azaldan bilib olish mumkin: “Qorako'lga Mahmud Sultonni yubordim, nasihatlar aytib va taqi Xoja Husomiy devonaga bu g'azalni aytib yubordim”. Muhammad Shayboniyxon “Xoja Husomiy devona” deb tilga olgan bu shaxs Devona Husomiy (Husomiy Qorako'liy) 1442–1505-yillarda yashab fors tilida ijod etgan sohibi devon shoirdir. Erkin fikrli, isyonkor va hozirjavob ijodkor bo'lgan. “Majolis-un nafa'is” va “Muzakkiri ahbob” tazkiralarda u haqida ma'lumot va she'rlaridan namunalar keltirilgan [Navoiy, 1997; 74; Nisoriy, 1993; 83–85; Navoiy, 2016; 155].

Muhammad Shayboniyxon badiiy asarning originalligiga, shakl va mazmunning mutanosibligiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. She'r ahli, ijod mas'uliyati, salaflarga hurmat borasida ham g'azallar yaratadi. “Devon”ning 35-she'rida bu mavzuda qiziqarli fikrlar bildiradi:

*Harki Xusrav she'rig'a aytur javob, ul beadab
 Masxara qilur o'zini, o'xshatolmay sondirab.
 So'zni andoq so'zlasakim, so'zi bo'lsa e'tibor,
 O'zin evungan kishig'a yo'qturur asli nasab.
 Xusrav-u Sa'diy-u Hofizg'a ne aytursen javob,
 Teng emastur shakkar-u qand-u asal birla inab (21 a b).*

Mazkur g'azalni Muhammad Shayboniyxon adabiy-estetik qarashlarining ma'lum bir ifodasi sifatida baholash mumkin. Badiiy asarda, xususan, g'azal janrida ijodkorning adabiy-tanqidiy fikr-mulohazalari amaliy tarzda namoyon bo'lishi ko'p ham kuzatiladigan hodisa emas. Yuqorida keltirilgan misralarda she'r tarzida aytilgan nazariy fikrlarni talqin qiladigan bo'lsak, Muhammad Shayboniyxon iste'dodsiz shoirlarning Xusrav Dehlaviy, Sa'diy va Hofiz Sheroziydek ulkan so'z san'atkorlari ijodiga o'xshatma tarzida she'r yozishlarini tanqid qiladi. Bundaylar mashhur shoirlarning she'rlariga javob aytaman deb kulgili holatga tushib qolishlarini, shuning uchun so'z aytganda uning martabasi yuqori darajada bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Ijodkorlarga talabchan munosabatda yozilgan bu fikrlar XIV asrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyot vakillaridan biri, shoir va tarjimon Sayfi Saroyining:

*Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
 Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog', –*

deb boshlanuvchi “Shoirlar ta'rifida” nomli masnaviysidagi shoirlik tabiati va she'r sifatiga doir kuzatishlarini yodga soladi.

Muhammad Shayboniyxon “Devon”ida o'ndan ortiq o'tmish va zamondosh shoirlar nomi biror munosabat tilga olingan. Bular Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Husayn Xorazmiy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro – Husayniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih kabilardir. Bundan tashqari, Said Imodiddin Nasimiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlarning ijodidan ham xabardor bo'lgan. Ular ta'sirida g'azallar bitgan. Muhammad Shayboniyxonning “Ey shoirlar” deb shoirlarga xitoban boshlanadigan qator she'rlari ham borki, bularning barchasi ijodkorlarga doimo e'tibor berganligini, zamondosh shoirlar bilan tez-tez muloqotda bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhammad Solih o'z dostonida Muhammad Shayboniyxonning bu xislatini, ya'ni shoir va san'atkorlar davrasida dilkash suhbatdosh ekanligini ham nazaridan qochirmay shunday yozgan:

*Borcha serob-u salis-u dilkash,
 Tab'ahlig'a jalis-u dilkash [Solih, 1961; 29].*

Adabiyotshunoslar H.Boltaboyev va M.Mahmudov so'z san'ati haqidagi qarashlar ham, tabiiyki, badiiy adabiyot vujudga kelganidan keyin shakllangani, xuddi yozma adabiyotning ibtidosi og'zaki adabiyotda uchragani kabi adabiy-estetik qarashlarning ibtidosi ham badiiy asarlar tarkibida uchrashi, badiiy adabiyot xususidagi dastlabki savol-javoblar, ayrim adabiy hodisalar haqidagi bahs yoki suhbatlarda tug'ilganini inkor etib bo'lmasligi va bunday og'zaki shaklda bayon

qilingan adabiy-nazariy qarashlar esa bizgacha yozma manbalar orqali yetib kelganini unutmaslik kerakligini ta’kidlab, yozma adabiy-nazariy manbalar deyilganda, nafaqat ilmiy-nazariy risolalar, balki badiiy asarlar tarkibida uchragan soʻz san’atiga doir suhbat va mulohazalar ham inobatga olinishi kerakligini qayd etganlar [Boltaboyev & Mahmudov, 2013; 9-10]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Muhammad Shayboniyxon ham adabiyotshunoslikka oid maxsus asar yozmagan bo’lsa-da, bu boradagi fikr-mulohazalarini she’rlari qatiga singdirib borganligini ta’kidlash zarur.

XULOSA

Muhammad Shayboniyxon oʻz davri adabiy-ilmiy muhiti rahnamosi, ma’rifatparvar hukmdor sifatida muntazam ravishda adabiy va diniy anjumanlar, she’riyat majlislari oʻtkazib turgan, ijodkorlarga e’tiborli va marhamatli bo’lgan. Fazlulloh ibn Roʻzbehon Isfahoniy, Kamoliddin Binoyi va Muhammad Solih faoliyati va ijodiga ma’lum darajada Muhammad Shayboniyxonning ta’siri bo’lgan. Muhammad Shayboniyxon “Devon”idagi ayrim she’rlarda shoh shoirning Kamoliddin Binoyi, Muhammad Solih va boshqa ijodkorlarga munosabati ifodalangan. Albatta, Muhammad Shayboniyxonning yuqorida keltirilgan she’rlari orqali unga zamondosh insonlarning shaxs va shoir sifatidagi umumlashma qiyofalari, ijodiy portretlari haqida to’liq tasavvur hosil qilib bo’lmaydi, chunki bu she’riyatning asosiy vazifasiga kirmaydi. Biroq “Devon”da bunday she’rlarning mavjudligi tasodifiy bo’lmay, har biri ma’lum bir tarixiy voqea, vaziyat yoki holat hamda Muhammad Shayboniyxonning adabiy darajasi, she’riyatga muhabbati va shoirlarga e’tibori bilan bog’liq tarzda yuzaga kelgan. Soʻz qadri, badiiy ijod mohiyati, she’r tabiati va shoirlik mas’uliyati bilan bog’liq masalalar ham tilga olingan g’azal, ruboiy, tuyuq, muammo singari asarlar tarkibida Muhammad Shayboniyning adabiy-estetik qarashlari ma’lum darajada aks etgan. U va shayboniylarning faoliyatlari serqirra, adabiy va madaniy-ma’rifiy meroslari salmoqlidir. Shayboniylar sulolasining el-yurt va madaniyat ravnaqi uchun qilgan xizmatlari oʻz ahamiyatini aslo yo’qotmaydi. Milliy davlatchiligimiz tarixida bir asr hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi vakillari tarixda faqat xongina emas, bunyodkor va ijodkor sifatida, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham qoladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. (1998). *Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq*. Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati.
2. Ahmedov, B. (1994). *Tarixdan saboqlar*. Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti.
3. Akramova, A.M. (Red.). (1967). *Tavarix-i guzida – Nusrat-name*. Tashkent: Izdatel’sstvo “Nauka”.
4. Berezina, I.N. (Perevod.). (1849). *Sheybaniada: Istoriya mongolo-tyurkov na djagatayskom dialekte*. Kazan: Kazanskiy universitet.
5. Bobur, Z.M. (2002). *Boburnoma* (P.Shamsiyev, S.Mirzayev & E.Mano nashrlari asosida, S.Hasanov (Nashr. tayyor.)). Toshkent: “Sharq” NMAK bosh tahririyati.
6. Bodrogligeti, A.J.E. (1982). Muhammad Shaybani’s ‘Bahru’l-huda’: An Early Sixteenth Century Didactic Qasida in Chagatay. *Ural-Altische Jahrbücher*, 54(2).
7. Boltaboyev, H., & Mahmudov, M. (2013). *Adabiy-estetik tafakkur tarixi* (1-j.). Toshkent: “Mumtoz soʻz” nashriyoti.
8. Eraslan, K. (1991). Şibânî Han’ın ‘Bahru’l-Hüdâ’ Adlı Eseri. *Türk Kültürü Araştırmaları*, XXVIII(1-2), 103–177.

9. Fitrat, A. (2000). *Tanlangan asarlar* (2-j., H.Boltaboyev (Nashr. tayyor.)). Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
10. Ibragimov, S.K. (1969). *Materiali po istorii kazaxskix xanstv XV–XVIII vekov: iz 'yatiya iz persidskikh i tyurkskikh sochineniy*. Alma-Ata: Nauka.
11. Ibrohimov, A. (1999). *Bizkim, o'zbeklar...*. Toshkent: "Sharq" NMAK bosh tahririyati.
12. Isfaxani, F.R. (1976). *Zapiski buxarskogo gostya*. Moskva: Nauka.
13. Karasoy, Y. (1998). *Şiban Han Divanı: İnceleme-Metin–Dizin–Tıpkıbasım*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
14. Mirzo, M.H. (2010). *Tarixi Rashidiy* (fors tilidan V.Rahmonov & Y.Egamova tarjiması). Toshkent: "Sharq" NMAK bosh tahririyati.
15. Mukminova, R. (1954). O nekotorykh istochnikax po istorii Uzbekistana nachala XVI v. *Trudy Instituta vostochnogo vedeniya*, 3, 119–137.
16. Mukminova, R. (1966). *K istorii agrarnix otnosheniy v Uzbekistane XVI v.: Po materialam "Vakf-name"*. Tashkent: Izdatel'stvo "Nauka" uzbekskoy SSR.
17. Navoiy, A. (1997). *Majolis un-nafois* (13-j.). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
18. Navoiy, A. (2016). *Qomusiy lug'at* (1-j., Sh.Sirojiddinov (Muh.)). Toshkent: "Sharq" NMAK bosh tahririyati.
19. Nisoriy, H. (1993). *Muzakkiri ahhob* (fors tilidan Ismoil Bekjon tarjiması). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
20. Qatag'an, M.A.M. (2009). *Musaxxir al-bilod* (fors tilidan I.Bekjonov & D.Sangirova tarjiması). Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyot uyi.
21. Qayumov, A. (1972). *Qadimiyat obidaları*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
22. Samarqandiy, A.T. (1991). *Samariya* (fors tilidan Abdulmo'min Sattoriy tarjiması). Toshkent: "Kamalak" nashriyoti.
23. Semenov, A.A. (1954). K voprosu o proisxojenii i sostave uzbekov Sheybani-xana. *Trudy akademii nauk Tadzhikskoy SSR*, 12, 3–37.
24. Solih, M. (1961). *Shayboniyнома* (N.Davron (Nashr. tayyor.)). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
25. Togan, Z.V. (1927). Şaybak Han'in şiirleri. *Yeni Türkistan*, 1, 21–25.
26. Togan, Z.V. (1947). *Bugünkü Türk ili: Türkistan ve Yakın Tarihi*. İstanbul: Güven Basımevi.
27. Vamberi, H. (1990). *Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
28. Vosify, Z.M. (1979). *Badoe' ul-vaqoe'* (fors tilidan N.Norqulov tarjiması). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
29. Ziyo, A. (2001). *O'zbek davlatchiligi tarixi: eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar*. Toshkent: "Sharq" NMAK bosh tahririyati.
30. Sharipova, M. (2004). *Muhammad Shayboniyxon*. Toshkent: "Sharq" NMAK bosh tahririyati.
31. Sharipova, M. (2020). The reflection of Muhammad Shaybanikhan's views the poem "Bahr ul-hudo". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(3), 207–215. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.00074.9>.

REFERENCES

1. Karimov, I.A. (1998). *There is no future without historical memory*. Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
2. Ahmedov, B. (1994). *Lessons from history*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
3. Akramova, A.M. (Ed.). (1967). *Tavarix-i guzida – Nusrat-name*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
4. Babur, Z.M. (2002). *Baburnama* (based on the publications of P.Shamsiyev, S.Mirzayev & E.Mano – S.Hasanov (Prep. Publ.)). Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
5. Berezina, I.N. (Transl.). (1849). *Sheybaniada: History of the Mongol-Turks in the Jagatai dialect*. Kazan: Kazan University.

6. Bodrogligeti, A.J.E. (1982). Muhammad Shaybani's 'Bahru'l-huda': An Early Sixteenth Century Didactic Qasida in Chagatay. *Ural-Altaic Yearbooks*, 54(2).
7. Boltaboyev, H., & Mahmudov, M. (2013). *History of literary and aesthetic thought* (Vol. 1). Tashkent: Publishing House of 'A Classic Word'.
8. Eraslan, K. (1991). Şibânî Khan's work named 'Bahru'l-Hüdâ'. *Turkish Culture Research*, XXVIII(1-2), 103–177.
9. Fitrat, A. (2000). *Selected works* (Vol. 2, H.Boltaboyev (Prep. Publ.)). Tashkent: Publishing House of 'Spirituality'.
10. Ibragimov, S.K. (1969). *Materials on the history of the Kazakh khanates of the XV–XVIII centuries: excerpts from Persian and Turkic works*. Alma-Ata: Publishing House of 'Science'.
11. Ibrahimov, A. (1999). *We, the Uzbeks...*. Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
12. Isfahani, F.R. (1976). *Notes from a Bukhara guest*. Moscow: Publishing House of 'Science'.
13. Karasoy, Y. (1998). *Divan of Şiban Khan: Review-text-index-reprint*. Ankara: Turkish Language Association Publications.
14. Katagan, M.A.M. (2009). *Musakhkhir al-bilad* (translated from Persian by I.Bekjonov & D.Sangirova). Tashkent: Publishing House of 'New Age Generation'.
15. Kayumov, A. (1972). *Monuments of antiquity*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Ghulam.
16. Mirza, M.H. (2010). *History of Rashidi* (translated from Persian by V.Rahmonov & Y.Egamova). Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
17. Mukminova, R. (1954). About some sources on the history of Uzbekistan at the beginning of the 16th century. *Proceedings of the Institute of Oriental Studies*, 3, 119–137.
18. Mukminova, R. (1966). *On the history of agrarian relations in Uzbekistan in the 16th century: Based on materials from 'Wakf-name'*. Tashkent: Publishing House of 'Science' of the Uzbek SSR.
19. Navoi, A. (1997). *Majolis un-nafois* (Vol. 13). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
20. Navoi, A. (2016). *An encyclopedic dictionary* (Vol. 1, Sh.Sirojiddinov (Ed.)). Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
21. Nisari, H. (1993). *Muzakkiri ahbob* (translated from Persian by Ismail Bekjon). Tashkent: Publishing House of People's Heritage named after Abdulla Qadiri.
22. Saleh, M. (1961). *Shaibaniinama* (N.Davron Prep. Publ.)). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
23. Samarkandi, A.T. (1991). *Samaria* (translated from Persian by Abdulmomin Sattori). Tashkent: Publishing House of 'Rainbow'.
24. Semenov, A.A. (1954). On the issue of the incident and the composition of the Uzbeks of Sheybani-ksan. *Proceedings of the Academy of Sciences of the Tajik SSR*, 12, 3–37.
25. Sharipova, M. (2004). *Muhammad Shaybanikhan*. Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.
26. Sharipova, M. (2020). The reflection of Muhammad Shaybanikhan's views the poem "Bahr ul-hudo". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(3), 207–215. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.00074.9>.
27. Togan, Z.V. (1927). Poems of Shaybanikhan. *New Turkestan*, 1, 21–25.
28. Togan, Z.V. (1947). *Today's Turkish province: Turkestan and its recent history*. Istanbul: Printing House of 'Trust'.
29. Vosify, Z.M. (1979). *Badoe 'ul-vaqoe'* (translated from Persian by N.Norkulov). Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Ghulam.
30. Wambery, H. (1990). *History of Bukhara or Movarounnahr*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Ghulam.
31. Zia, A. (2001). *History of Uzbek statehood: From the earliest times to the Russian invasion*. Tashkent: Publishing-Printing Joint-Stock Company of 'East'.